



O'ZBEK TILIDA "KO'NGIL" MAYDONI LEKSIK BIRLIKLARINING MA'NOLARINI O'RGANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17634635>

Goipova Saidaxon Madaminjon qizi

Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola o'zbek tilida "ko'ngil" so'zi bilan bog'liq leksik birliklarning ma'nolarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada "ko'ngil" maydoni ichidagi so'z birikmalari, ularning semantik xususiyatlari va kontekstga qarab qo'llanishi tahlil qilinadi. Maqolada so'zning turli ma'nolari, ularni ifodalash shakllari va tilshunoslik nuqtai nazaridan o'zaro aloqalari o'rganilgan. Natijadalar esa, o'zbek tilining leksik-sintaktik boyligini chuqurroq anglashga va lug'at ishlarida amaliy foydalanishga xizmat qiladi.

KALIT SO'ZLAR: ko'ngil maydoni, yurak, qalb, dil, mehr, muhabbat, bag'r, jigar

O'zbek tili leksik tizimida *ko'ngil* maydoni insonning ichki dunyosi, hissiy kechinmalari, ruhiy holati va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini ifodalovchi markaziy tushuncha sifatida alohida o'rin egallaydi. *Ko'ngil* leksik-semantik maydoni tarkibida bu so'zning turli ma'no ko'chishlari, sinonimik qatorlari, frazeologik va metaforik ishlanmalari mujassamdir. Ushbu birliklar orqali o'zbek xalqining dunyoqarashi, milliy xarakteri, his-tuyg'uga, odob-axloqqa va insoniy munosabatlarga bo'lgan munosabati namoyon bo'ladi.

Milliy dunyoqarashni o'rganishda asosiy uslublardan biri ma'lum bir leksemaning ichki tuzilishini tahlil qilishdir. Bu uslub shu millatning tafakkurida aniq bir semantik maydonni aks etishi haqida xulosalar chiqarishga ko'maklashadi. O'zbek tilida ham

ko'ngil so'zi o'zining ma'no strukturasiga ega.

Ko'ngil - kishining his-tuyg'u va kechinmalari manbai bo'lib biz uni *yurak*, *qalb*, *dil* so'zlari bilan sinonim sifatida ishlatishimiz mumkin. Bu so'z morfologik jihatdan ot so'z turkumiga mansub bo'lib, mavhum ot hisoblanadi. Hamda biz uni *yurak* kabi ko'ra olmaymiz, faqat uni his-tuyg'ularimiz orqaligina ifodalay olamiz.

Yurak bu kishi organizmining bir bo'lagi hisoblansa, *ko'ngil* insonning ruhiy holatini yoritib beruvchi tushuncha hisoblanadi. Bu otning kelib chiqish etimologiyasiga nazar solsak, bu ot asli qadimiy turkiy tildagi *his-tuyg'uga berilmoq* ma'nosini anglatgan, kōn-fe'lidān -(ü)l qo'shimchasi bilan yasalgan; o'zbek tilida ikkinchi bo'g'indagi ü unlisi i unlisiga almashgan, ö unlisining yumshoqlik belgisi



yo'qolgan: $k\ddot{o}n- + o'l = k\ddot{o}n\ddot{o}l > k\ddot{o}n\ddot{i}l > ko\ddot{n}il$ - o'zbek tilida esa *ko'ngil* tarzida bizgacha yetib kelgan.

O'zbek tilida *ko'ngil* so'zi faqat leksik birlik emas, balki til tizimining muhim bo'lagi hisoblanadi, chunki u o'zida juda keng semantik, psixologik, madaniy va estetik mohiyatni mujassamlashtiradi. Ushbu tushuncha orqali odamning ichki dunyosi, tuyg'ulari, ish-harakatlari hamda jamiyatdagi mavqei ifodalanadi. *Ko'ngil* so'zi tilda katta paradigmatic bog'liqliklarni yaratadigan asosiy element hisoblanadi. U o'ziga ko'plab leksik, frazeologik, semantik birliklarni birlashtirib, zich tarmoqlangan semantik maydon hosil qiladi.

O'zbek tilida ham *ko'ngil* leksemasi, barcha lisoniy leksemalar kabi, ma'no va ifoda jihatidan mazmun va ifoda plani mavjud. *Ko'ngil* arxisemasi hamda unga bog'liq yaqin va uzoq semalar yig'indisi esa mazmun plani hisoblanadi. *Ko'ngil* leksemasining ifoda plani uning atrofida shakllangan lug'aviy birliklar tomonidan belgilanadi. Bu birliklar, og'zaki va yozma nutqda, fonetik, leksik va grammatik qoidalarga asoslangan holda tasviriy shakllarga ega.

Milliy dunyoqarashni o'rganishda asosiy uslublardan biri ma'lum bir leksemaning ichki tuzilishini tahlil qilishdir. Bu uslub shu millatning tafakkurida aniq bir semantik maydonni aks etishi haqida xulosalar chiqarishga ko'maklashadi.

O'zbek tilidagi *ko'ngil* atamasi ma'no jihatdan murakkab va ko'p

qirralidir. Bu so'z nafaqat ruhiy holatni, balki *insoniy fazilatlar, yaxshilik, muhabbat, intilish, sokinlik* kabi teran madaniy va psixologik mazmunlarni ham o'z ichiga oladi.

O'zbek tilidagi *ko'ngil* so'zining semantik tarkibi, uning yadro va periferiya elementlari, ma'no tarmoqlari hamda ular orasidagi semantik aloqalar tahlil qilinadi. Shuningdek, *ko'ngil, yurak, dil, qalb, ruh, bag'r, ich, mehr, muhabbat* kabi leksik birliklarning o'zaro semantik munosabatlari, ma'no kengayishi va ko'chma ma'nodagi qo'llanishlari ko'rib chiqiladi.

Ko'ngil maydoniga kiruvchi birliklar faqat hissiy holatni emas, balki insonning axloqiy, estetik va ijtimoiy fazilatlarini ham ifodalaydi. Shu boisdan bu birliklar xalq tafakkurida, og'zaki ijodda, badiiy adabiyotda va kundalik nutqda keng qo'llanilib, milliy mentalitetni ifodalovchi muhim semantik maydonni tashkil etadi.

Ko'ngil maydoni o'zbek xalqining tilida, tafakkurida va madaniyatida shakllangan milliy qadriyatlarini ifodalovchi markaziy semantik o'zaklardan biridir. Shuning uchun uning leksik tarkibini tahlil qilishda, semantik jihatdan bog'liq bo'lgan so'zlarni yadro, yaqin periferiya, o'rta periferiya va uzoqlashgan periferiya qatlamlariga ajratib o'rganish zarur bo'ladi.

1. Yadro qatlamga *ko'ngil* tushunchasi kiradi.

2. Yaqin periferiya qismiga uning to'liq semantik muqobillarini ifodalovchi, insonning ichki his-tuyg'ulari, ruhiy



olami va ma'naviy mohiyatini tasvirlovchi birliklar kiradi. Ushbu qatlamga: *yurak, dil, qalb, ruh, vijdon* so'zlari kiradi. Masalan, *ko'ngli g'ash odamda ishga bo'lgan ishtiyoq yo'q* misolida *ko'ngil* insonning ruhiy holati va ichki kechinmasini namoyon etadi.

Yuragi ezilib ketdi, lekin buni hech kimga aytmagan misolida esa *yurak* anatomik ma'nodan tashqariga chiqib, *ko'ngilni* anglatuvchi semantik birlik sifatida qo'llanilgan.

Dilingni ranjitgan so'zni aytma jumlasida *dil* his-tuyg'ular manbai sifatida *ko'ngil* bilan sinonimik munosabatda keladi.

Xuddi shunday, *qalbida mehr paydo bo'ldi, ruhim tinchlik topdi, vijdoni azoblangan odam osoyishtalikka erisha olmaydi* kabi misollarda *qalb, ruh, vijdon* birliklari *ko'ngilning* turli ma'naviy qirralarini ifodalovchi markaziy birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

3. O'rta periferiya qatlamiga *ko'ngil* bilan bevosita bog'liq bo'lgan, lekin ko'proq hissiy, ruhiy jarayonlar, kechinmalar va kayfiyat holatlarini ifodalovchi birliklar kiradi. Ular *ko'ngilning* hissiy faoliyati va holatini turlicha nomlaydi. Ushbu qatlamga *tuyg'u, his, kechinma, bag'r, diyda, orzu, umid, niyat, dard, sog'inch, armon, iztirob, shodlik, baxt, xotirjamlik* kiradi.

Masalan, *tuyg'ularini yashirib bo'lmaydi* misolida *tuyg'u* *ko'ngilda* kechuvchi hissiy holatni bildiradi.

Uning yuragida g'alati his uyg'ondi misolida *his* ruhiy sezgi, ichki kechinma ma'nosida qo'llanilgan.

Har bir kechinma yurakda iz qoldiradi jumlasida *kechinma* ruhiy jarayonni ifodalaydi.

Orzular yurakni iliq qiladi, ko'ngil umid bilan yashaydi, yaxshi niyat bilan ish boshlasang, ko'ngling tinch bo'ladi kabi misollar *orzu, umid, niyat* so'zlarining *ko'ngil* bilan semantik aloqasini ochib beradi.

Shuningdek, *ko'nglidagi dardni hech kim bilmaydi, ko'nglida sog'inch uyg'ondi, ko'nglida armoni qoldi, iztirobga to'lgan yurak jim, ko'nglida shodlik gulladi, baxtli yurakda hasad bo'lmaydi, ko'ngil xotirjamligi inson uchun eng katta boylikdir* kabi misollar o'rta periferiya qatlamidagi birliklarning *ko'ngil* maydonidagi faol semantik ishtirokini tasdiqlaydi.

4. Uzoq periferiya qatlamiga *ko'ngil* bilan bilvosita semantik bog'lanishga ega bo'lgan, biroq insonning ichki holatini, hissiy kayfiyatini, ichki kechinmalarini aks ettiruvchi so'zlar kiradi. Ular *ko'ngil* maydonining kengaytirilgan ma'no doirasida ishtirok etadi. Bu qatlamga *g'am, mehr, muhabbat, qayg'u, tashvish, sabr, bardosh, mehribonlik, shafqat, rahm, havas, nafrat, rashk, g'azab, sevgi, iftixor, minnatdorlik, g'urur, qo'rquv, hayajon, befarqlik, tushkunlik* kiradi. Masalan, *jonida g'am to'lqini ko'tarildi, yuragida chuqur qayg'u bor edi, ko'ngli tashvishda edi* misollarida *g'am, qayg'u, tashvish* ruhiy iztirobli holatni ifodalaydi. *Onaning mehri cheksiz va muhabbat yurakni yondiradi* misollarida *mehr* va *muhabbat* – *ko'ngilning* iliq, ijobiy kechinmalarini anglatuvchi birliklardir.



Sabr ko'ngilni tinchlantiradi, bardoshli odamning joni keng bo'ladi misollarida *sabr* va *bardosh* ichki mustahkamlikni bildiradi. *Shafqatli yurak hech kimni yomon ko'rmaydi, rahmli odamning yuragi toza bo'ladi* misollarida *shafqat* va *rahm* ko'ngilning yumshoqligi va insonparvarlik jihatini ko'rsatadi. *Ko'nglida nafrat uyg'ondi, rashk yurakni o'tday yondiradi, g'azabini yuta olmadi* misollarida esa *nafrat*, *rashk*, *g'azab* salbiy hissiyotlar orqali ko'ngilning ichki qarama-qarshiligini namoyon qiladi.

Sevgi ko'ngilni yoritadi, farzandining yutug'i bilan iftixor etdi, ko'nglida minnatdorlik tuyg'usi uyg'ondi, "Ko'nglida g'urur uyg'ondi" kabi misollar ko'ngilning ijobiy, yuksak ma'naviy holatini aks ettiradi.

Shuningdek, *qo'rquvdan yuragi hapriqdi, hayajon ko'nglini chulg'adi, befarqlik ko'ngilni muzlatadi, ko'ngli tushkunlikka tushdi* kabi misollar ushbu


qatlamdagi birliklarning ko'ngilga nisbatan bilvosita leksik-semantik bog'lanishini tasdiqlaydi.

Bu tizim orqali *ko'ngil* leksik-semantik maydonining ichki tuzilmasi va tashqi chegaralari aniqlanadi. Har bir birlik mazmunan *ko'ngil* bilan yaqin yoki qarama-qarshi aloqada bo'lib, umumiy semantik maydon doirasida o'z o'rniga ega.

O'zbek tilidagi *ko'ngil* atamasi ma'no jihatdan g'oyat murakkab va ko'p qirralidir. Bu so'z nafaqat ruhiy holatni, balki insoniy fazilatlar, yaxshilik, muhabbat, intilish, sokinlik kabi teran madaniy va psixologik mazmunlarni ham o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, ko'ngil semantikasining asosiy holatini ifodalovchi til omillari kognitiv jarayoni bosqichlarini chizma asosida ifodalashga harakat qilamiz.

2.2.-shakl. O'zbek tilida "ko'ngil" leksik-semantik maydonining iyerarxaik ko'rinishi.





O'zbek tilida *ko'ngil* leksik-semantik maydoni invariant *ko'ngil* arxisemasi atrofida birlashgan til birliklari tizimini ifodalaydi. Ushbu maydonda o'z o'rniga ega bo'lgan, turlicha morfologik va sintaktik tuzilishga ega bo'lgan, invariant ma'noga yaqin yoki bosh ma'nodan uzoqlashgan aloqalari bor, bir yoki undan ortiq ma'noli, mono yoki polifunksional, o'zaro paradigmatic va sintagmatik aloqalar mavjud bo'lgan, vazifalariga ko'ra faol yoki nafaol bo'lgan til birliklari to'plamini anglatadi.

Yuqorida zikr qilingan mulohazalarga tayangan holda ta'kidlash mumkinki, *ko'ngil* leksemaning yadrosi til egalari uchun faol assotsiatsiya hosil qiladi, kamroq ahamiyatga ega bo'lganlari esa periferiyadan joy oladi va markazdan uzoqlashgan sari ular (assotsiatsiya)ning ma'nosi ham susayib boradi. *Ko'ngil* leksemaning yadrosi sifatida so'zlovchi ongida hosil bo'lgan asosiy tushuncha (tasavvur) tan olinadi. Uning periferiyasini esa yadroning kognitiv xususiyatini baholaydigan va talqin qilib bera oladigan maydon hosil qiladi.

Ko'ngil so'zi juda ham ko'p lug'aviy ma'nolarga ega. Biz uni salbiy yoki ijobiy holda ham ishlatishimiz mumkin. Misol uchun: *ko'ngil* leksemasi *yurak, qalb, dil* ma'nolarini anglatishini olaylik. *Ko'ngilida yaxshi niyatlari ko'p* leksik birligida biz *ko'ngil* leksikasini biror bir insonni qalbida oldindan yaxshi niyatlari, maqsadlari bilan tuzayotgan rejalarini, qilmoqchi bo'lgan yaxshi ishlarini tushunishimiz mumkin bo'lsa,

ko'ngil uzmoq leksik birligida, biz buni aksini ko'rishimiz mumkin. Bu yerda *ko'ngil* leksikasi *bahridan o'tmoq, kechmoq, ajralmoq, tashlab ketmoq* ma'nolarini ifodalab kelgan. Masalan: *Bir yog'i bular, qolaversa, validamizning qabrlaridan ko'ngil uzolmay, Kapsanchilarda qolib ketdim.* (A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. B. 57) Bu misoldan ham ko'rinib turibdiki, *ko'ngil* leksemasi, *ko'ngil uzmoq*- ya'ni onasinining qabrini tashlab keta olmaslik ma'nosini anglatib kelgan.

Ko'ngil leksemasining lug'aviy ma'nosi "*yurak, qalb, dil* ma'nolarini anglatadi. Masalan: *Ko'ngil- bu ko'zgu.* Bundan tashqari biz *ko'ngil* so'zini *ko'ngli bo'sh* kabi leksik birliklarida *fe'l-atvor, xarakter, xulq* ma'nolarini ham ifodalab keladi. Masalan: Taniqli yozuvchi Said Ahmadning, "Qadrdon dalalar" asarida ushbu leksik birlik qo'llanilgan: *Jahldan tushgandan keyin yana yumshab qolasiz, rais, ko'nglingiz bo'sh.* (Said Ahmad. Qadrdon dalalar B.25)

Bu yerda *ko'ngil* leksemasi xarakterni, xulq-atvorni ifoda etayotganini ko'rishimiz mumkin, ya'ni bu misolda raisning ko'ngli bo'shligi uning ko'ngilchangligi, yomon xarakterda emasligini, jaxli tushgandan keyin o'sha qilgan aybini kechirib yuboruvchi xarakterdagi shaxs ekanini tushunamiz.

O'zbek tilida ham "*ko'ngil*" so'zining bir nechta ma'nolari bor, ular kontekstga qarab o'zgarishi mumkin. Bu so'z asosan quyidagi ma'nolarda ishlatiladi:



1. *Ko'ngil* so'zi insonning ruhiy holatini ifodalaydi. Masalan: *Bugun ko'nglim hotirjam chunki barcha ishlarimni tamomladim.* S. Anorboyevning "Oqsoy" asarida ko'ngil leksikasini aksincha ma'noda ko'rishimiz ham mumkin: *Nigoraning ko'nglini qandaydir g'amgin his-tuyg'ular egallab oldi.* Bu yerda, Nigoraning ichki dunyosini xafagarchilik, yomonlik tuyg'ular bilan to'lganini tushunishimiz mumkin. *Ko'nglim quvonchlarga to'ldi, ammo bu damda bir parcha chapatiga zorlik qanday musibat.* (Oybek. Nur qidirib.- B.52)

2. Shuningdek, *ko'ngil* so'zi istak yoki xohish, insonning biror narsani qilish istagini bildiradi. Misol uchun: *Ko'nglim shu kitobni o'qishni xohlaydi.*

3. Shu bilan birga *ko'ngil* insonning samimiyligi va yaxshilikka intilishini ifodalaydi. Misol: *Uning ko'ngli toza, har doim yordam berishga tayyor.*

4. Bundan tashqari "ko'ngil" insonning kayfiyatini aks ettiradi. O'zini tutish yoki kayfiyatini ko'rsatib beradi. Misol: *"Ko'nglimda g'ashlik bor, shuning uchun bugun uyda qolaman."*

5. Shuningdek, "ko'ngil" ichki his-tuyg'ularni ifodalashni anglatadi. Masalan: *Ko'nglimdan kelgan so'zlarni aytib beraman.* Ya'na bir misol : *Aslida esa hozir uning ko'nglida bir-biriga zid, asov tuyg'ular junbisha kelib, jismu jonini goh bezovta qilsa, goh halovatli kechinmalarga g'arq etayotgan edi.* (S. Siyoyev. Yorug'lik. 145 b.) Ushbu misolda ham, uning ichki dunyosini

yomon tuyg'ular egallagani sababli, u bezovta bo'lib, halovatini, tinchini yo'qotganini tushunamiz. Romanidagi ushbu parchani tahlil qilsak: *Zaynab: - Ko'nglimda tariqdek yomonlik bo'lsa, ertagacha yetmayin.* (Abdulla Qodiriy. O'tgan kunlar. 195b)

O'zbek tilida yuqoridagi kabi "ko'ngil" so'ziga aloqador yana juda ko'plab birikmalarni uchratishimiz mumkin. Har qanday ilmiy muammoni o'rganishda eng muhim uslubiy masalalardan biri tizimli va sintezlovchi yondashuvdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, leksik semantik maydon keng doira va yaxshi istiqbolga ega bo'lgan, umuman tarkib bilan birlashtirilgan va iyerarxik tuzulishga ega bo'lgan birliklar to'plamidir. U nafaqat leksik semantik maydon tizim qismlarining iyerarxik tuzulishini aks ettiradi, balki o'zaro bog'liq ravishda xususiy an'anaviy lingvistik munosabatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Bizning fikrimizcha, "ko'ngil" leksik-semaantik maydoni deganda invariant "ko'ngil" arxisemasi atrofida birlashgan, ushbu maydonda o'z o'rniga, turlicha morfologik va sintaktik tuzilish modeliga ega, invariant ma'noga turli darajada yaqin yoki distant (bosh ma'nodan uzoqlashgan) aloqadagi, bir va undan ortiq ma'noli, mono yoki polifunksional, o'zaro paradigmatic, sintagmatik aloqada bo'lgan, vazifalariga ko'ra faol va nafaol, ifodaliligi jihatidan turlicha bo'yoqdorlikka ega til birliklari sistemasini tushunamiz.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли/ А. Мадвалиев тахр. ост.—Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. —Б.457.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Тошкент. Унивевситет. 2020. Б.228
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли/ А. Мадвалиев тахр. ост.—Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. —Б.457.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли/ А. Мадвалиев тахр. ост.—Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. —Б.457.
5. <https://izoh.uz/word>